

IMPROVEMENT OF THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF SMALL AND LARGE BUSINESSES IN CONSTRUCTION

QURILISHDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Nilufar Shuxratovna

TAQU, “Iqtisodiyot va ko’chmas mulk” kafedrası v.b. professori, PhD

Hajiboyeva Kamola Baxtiyor qizi

TAQU, “Iqtisodiyot va ko’chmas mulk” kafedrası magistranti

Annatation: This article examines the organizational and economic mechanisms of small and large business entities operating in the construction sector, as well as the ways to improve these mechanisms. In addition, it analyzes the organizational, economic, and technological factors influencing the effective development of the industry. The construction sector, with its significant economic potential and the ability to participate directly in major infrastructure projects, constitutes an important component of the national economy. Therefore, enhancing modern organizational and economic mechanisms to ensure the stable and efficient operation of small and large business entities is considered a pressing task.

Keywords: Construction sector, small and large businesses, organizational-economic mechanisms, innovative technologies, financial mechanisms, digital technologies in construction.

Annatatsiya: Mazkur maqolada qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va yirik biznes subyektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish yo’llari o’rganiladi. Shuningdek, sohaning samarali rivojlanishiga ta’sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillar tahlil qilinadi. Qurilish sektori o’zining yuqori iqtisodiy salohiyati va yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’lgani bois, u milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, kichik va yirik biznes subyektlarining barqaror va samarali faoliyatini ta’minlash maqsadida zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Kalit so’zlar: Qurilish sohasidagi kichik va yirik biznes, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy mexanizm, qurilishda raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье изучаются организационно-экономические механизмы деятельности малых и крупных субъектов бизнеса в строительной отрасли, а также пути их совершенствования. Кроме того, анализируются организационные, экономические и технологические факторы, влияющие на эффективное развитие отрасли. Строительный сектор, обладая высоким экономическим потенциалом и возможностью непосредственного участия в реализации крупных инфраструктурных проектов, занимает важное место в национальной экономике. Исходя из этого, совершенствование современных организационно-экономических механизмов с целью обеспечения



устойчивой и эффективной деятельности малых и крупных бизнес-субъектов рассматривается как актуальная задача.

Ключевые слова: Строительная отрасль, малый и крупный бизнес, организационно-экономический механизм, инновационные технологии, финансовый механизм, цифровые технологии в строительстве.

Kirish. Qurilish sektori har qanday mamlakatning iqtisodiy o‘rinishida, infratuzilmaning rivojlanishida, bandlikni oshirishda va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida qurilish tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish hamda ilg‘or texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qurilish tarmog‘ida kichik va yirik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning faoliyatini yanada samarali tashkil etish, shubhasiz, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omillarni inobatga olgan holda, olib borilgan tadqiqot natijalari mamlakat iqtisodiyoti va qurilish sanoatining barqaror hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy mazmuni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va yirik biznes subyektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, asoslari, milliy va xorijiy olimlarimizning qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarining faoliyati, rivojlanishi va qo‘llab-quvvatlashiga bag‘ishlangan ilmiytadqiqot ishlari tashkil etadi. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullari, ekonometrika, sotsiologik anketa so‘rovlari, ekspert baholash usullari kabi umumiy ilmiy yondashuv va bilish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, shuningdek uning hududiy boshqarmalarining ma’lumotlari, qurilishda kichik va yirik biznesni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda tartibga solish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy hujjatlar, qurilishda kichik va yirik biznesni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan vazirlik va idoralarining rasmiy statistik hisobot materiallari tadqiqot ishi uchun empirik asos bo‘lib xizmat qildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning nazariy masalalari chet ellik olimlardan A.Smit, J.B.Sey, R.Kantilon, A.Marshall, Y.Shumpeter, J.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, M.G.Lapusta, G.N.Vlasov, A.M.Jeltov va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan. O‘zbekistonda KBXTni rivojlantirishning umumnazariy masalalari Y.Abdullayev, M.Boltabayev, U.G‘ofurov, A.Samadov, A.Yusupov, B.Xodiyev, T.Do‘stjanov, S.Salayev, N.Murodova, Q.Muftaydinov, A.Vahobov, R.Xodjayev, B.Sanaqulova, A.Qulmatov U.Boymatova, I.Ibragimov, D.Sobirjonova, J.O‘rmonov4 va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan. Respublikamizda qurilish tarmog‘ini rivojlantirish va boshqarish, sohada KBXTni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning nazariy-uslubiy, amaliy masalalari olimlarimizdan R.Nurimbetov, A.Abdullayev, N.Axmedova, R.Gimush, L.Nosirova, M.Ziyayev, D.Xairova, I.Davletov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritilgan. Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarda aynan qurilish sohasida KBXTni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan masalalar tizimli ravishda yoritilmagan. Bu esa ushbu dissertatsiya ishidagi

muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda kichik va yirik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni ham yildan-yilga oshib borishi kuzatilmoqda.

Tuman va shaharlari eng ko'p faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Chilonzor tumanida 11 045 ta, Andijon shahrida 11 023 ta, Samarqand shahrida 10 190 ta hamda Namangan shahrida 9 146 ta subyekt mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng yuqori ulushlar savdo sohasida 131 597 tani yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning 32 foizini, sanoatda 82 746 tani yoki 20,1 foizni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 40 719 tani, qurilishda 40 695 tani va mos ravishda 9,9 foizni, maishiy va ovqatlanish xizmatlarida 7,3 hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 12,6 foizni tashkil etgan. O'z navbatida, 2020 yilda 93 214 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangidan ish boshladi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi orqali aholining turmush darajasini oshirish, hududlarda 22 ta uy-joy ixtisoslashtirilgan qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish, hududlararo sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish, yangi turdagi qurilish mahsulotlarni o'zlashtirish va xarajatlarini kamaytirish evaziga qurilishga ketayotgan vaqtni 30 foizga, qurilish tannarxini 20 foizga kamaytirish ustuvor vazifalardan qilib belgilangan. Shuningdek, 2022-2026-yillarda 5 mlrd. AQSH dollarlik loyihalarini ishga tushirish asosida qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil qilish, doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning YAIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

“O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi “Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5392-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5139-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida”gi PQ-64-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5087-son Qarorlari doirasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish orqali kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga turtki beradi. Shu orqali moliyaviy, soliq va byurokratik to'siqlar kamaytiriladi hamda investitsion faollik oshirish.

Qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish uchun mexanizmlar:

1. Loyiha boshqaruvi va texnologik innovatsiyalar: Qurilish sohasida kichik

bizneslar uchun loyihalarni samarali boshqarish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda yordam berish muhimdir. Bularga ko'proq raqamli texnologiyalar, qurilish avtomatizatsiyasi, 3D modellash va smart qurilish tizimlarini o'rganish kiradi. Yirik bizneslar bu sohada ilg'or texnologiyalarni joriy qilgan bo'lishi mumkin, ammo kichik bizneslarga ham bu imkoniyatlarni taqdim etish zarur.


2. Moliyaviy va resurslarni boshqarish: Kichik bizneslar uchun moliyaviy yordam va kreditlarni olishda maxsus dasturlar yaratish, shuningdek, o'zgaruvchan bozor sharoitlarida resurslarni samarali boshqarish muhim. Yirik bizneslar esa o'zlarining moliyaviy imkoniyatlari asosida tashkiliy strukturalarini optimallashtirishlari mumkin.

3. Raqobatbardoshlikni oshirish va bozorni kengaytirish: Qurilishda raqobatbardosh bo'lish uchun kichik bizneslarga ko'maklashish, masalan, hamkorlik dasturlari o'tkazish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratish kerak. Yirik bizneslar esa o'zlarining o'rganilgan bozorlaridagi ustunliklarini yanada rivojlantirishga harakat qilishi lozim.

4. Davlat qo'llab-quvvatlashi: Qurilish sanoatidagi kichik va yirik bizneslarni rivojlantirishda davlatning roli katta. Davlat tomonidan kichik bizneslarni moliyalashtirish, subsidiyalar va soliq imtiyozlari kabi qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi kerak. Yirik bizneslar uchun esa infratuzilma rivojlanishi va soliq siyosati bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilishi mumkin.


5. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Qurilish sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirish muhim. Kichik bizneslarda mutaxassislar etishmasligi, yirik bizneslarda esa kadrlar o'rtasida kadrlar almashinuvi muammolari mavjud. Malaka oshirish kurslari, tajriba almashish dasturlari va yangi texnologiyalarni o'rgatish orqali bu muammolarni hal qilish mumkin.

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
dinamikasi**



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

1-rasm tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, 2024 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 103,691,0 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 28,0%,ini tashkilotadi. O'sish sur'ati 2023 yilga nisbatan 2 %ga o'sgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat faoliyati o'sib bormoqda, bu ko'rsatgich mamlakatimizning iqtisodiy rivojiga o'z samarasini ko'rsatadi.



2-rasm Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

2-rasm tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, 2024 yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 57,674,9 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 72,2%,ini tashkil etdi. 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 5.1 % ga pasayish kuzatilgan. Bu pasayish tashkiliy, iqtisodiy omillarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Qurilishda kichik va yirik biznes subyektlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun bir qator muhim strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Kichik bizneslar uchun samarali moliyaviy yordam, raqamli texnologiyalardan foydalanish, hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Yirik bizneslar esa o'z resurslari va imkoniyatlaridan foydalangan holda bozorni kengaytirish, texnologiyalarni innovatsion tarzda qo'llash orqali sektorni rivojlantirishda yetakchi o'rinni egallashi mumkin.

Qurilish sohasida innovatsion yondashuvlar va samarali boshqaruv tizimlari, nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni saqlashga ham xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-noyabrda "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6658633>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martda "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>



3. O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to'g'risida'gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5307951>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" Taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-6600413>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/>
6. Axmedova N.Sh. Qurilishda kichik biznesni rivojlantirishda tadbirkorlik muhiti jozibadorligini ta'minlash masalalari//Toshkent arxitektura-qurilish universiteti: "Сборник материалов международной научно-практической конференции". Toshkent. 2021 yil.
7. Axmedova N.Sh. Qurilish sohasida kichik va yirik biznes subyektlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari //Farg'ona Politexnika Instituti: "Arxitektura va shaharsozlik o'tmish, bugun, kelajak" mavzusida respublika ilmiy va ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalari to'plami". 2021 yil. 316-318
8. Boltaboyev.M, Qosimova.M, Ergashxodjayeva.Sh, G'oyibnazarov.B, Samadov.A, Otajonov.Sh "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Darslik. Toshkent -Iqtisodiyot 2011y
9. Xodiyev.B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Toshkent.: TDIU, 2010.
10. Abduqahhorov.A. Kichik biznes va tadbirkorlik rivojining joriy holati tahlili // "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" ilmiy-elektron jurnal. 2025 yil.